DINIY-MIFOLOGIK TASAVVURLAR BILAN BOG‘LIQ HOLDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR XUSUSIDA

Jo‘raboyeva Gulrux Solijonovna,
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti (f.f.b.f.d., dotsent)

Annotatsiya
Maqolada turkiy xalqlarning diniy e’tiqod, tushuncha va tasavvurlari hamda olam haqidagi mifologik tasavvurlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan etnotoponimlar, antropotonimlar xususida so‘z yuritilib, ular lingvokulturologik jihatdan tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: *etnotoponim, antropotoponim, etnonim, etimologiya, totemistik qarashlar, magik va mifologik tasavvurlar.*

KIRISH

Toponimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishda kishilarning diniy qarashlari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning salmoqli qismini etnotoponim va antropotoponimlar doirasida o‘rganish mumkin. Jumladan, totemlar asosida yuzaga kelgan etnonimlar juda qadimiydir. Ularning paydo bo‘lishi majusiylar, ya’ni otashparastlar davriga borib tutashadi. Bunga ko‘ra ma’lum urug‘ va qabila a’zolari biror hayvon, o‘simlik yoki predmet bilan aloqador hisoblanib, mazkur narsalarni muqaddaslashtirishgan va unga sig‘inishgan. Urug‘-qabilalarni nomlashda totemik qarashlarga suyanish turkiy va mo‘g‘ul xalqlari orasida yuzaga kelgan qadimiy an’ana hisoblangan [1, B. 201]. Ilmiy adabiyotlarda mazkur xalqlarning o‘tmishda, asosan, *bo‘ri, ot, ayiq, burgut, ilon, echki, qo‘y, xo‘kiz, baliq* va boshqa totemlarga e’tiqod qilganliklari qayd etiladi [2, B. 12]. Masalan, O‘rta Osiyo xalqlarining muqaddas diniy kitobi «Avesto»da *ot (asp)* totemi bilan bog‘liq quyidagi antroponimlar yuzaga kelgan: *Arjosp* (qimmatbaho ot egasi), *Go‘shnasp* (erkak ot egasi), *Lurhosp* (uchqir ot egasi), *Vishtaspa* (urg‘ochi ot egasi), *Garshosp* (chayir ot egasi), *Taxmosp* (chopqir ot egasi), *Huvosp* (yaxshi ot egasi) va boshqalar [3, B. 70]. Totem turlarini bildiruvchi aksariyati turkiy-mo‘g‘ulcha so‘zlar keyinchalik etnonimga aylanib, so‘ngra joy nomi maqomiga erishgan va shu tariqa tilda turg‘unlik kasb qilgan. Xususan, Farg‘ona vodiysi hududidagi *Bahrin (lochinning bir turi), Qarg‘a, Hakka, Olaqanot, Chag‘ali, Ayronchi (ayron qushi), Qoraqushchi, Qushchi, Oqtovuq, Shunqor, Tuvadoq (tuvaloq-qush), Qahat (qush turi); Kaltatoy (ot turi), Yobu (ot turi), Tuyachi, Tuyalas, Takalar, Takali, Bo‘rito‘pi, Bo‘riboshi, Noraybo‘ri, Oqechki, Beshechki, Oqbo‘yra (bug‘ra-tuya), Katta To‘rtayg‘ir, Kichik To‘rtayg‘ir, Olabaytal, Olatoy, Munduz (ot), Do‘ltali (sirtlon), Bag‘ish (bug‘u), Cho‘ngbag‘ish, Ariqbag‘ish, Qorqo‘yli, Olaqo‘yli, Alqor (tog‘ qo‘yi), Yangi ko‘rpa, Qorako‘rpa (ko‘rpa-qo‘zichoq), Tulkiobod, Qo‘ng‘irot, Uychi* (uy-sigir) kabi 40 dan ortiq etnotoponimlar totem sifatida muqaddaslashtirilgan jonivorlar nomini anglatuvchi birliklar asosida yuzaga kelgan. Shuningdek, ilk davrlarda mahalliy xalqlarning afsonaviy tarixi va olam haqidagi mifologik tasavvurlari bilan bog‘liq holda aksariyat ibodatxona, mug‘xona kabilar yoki ayrim suv havzalari va qishloq nomlari turli iloh va xudolar, insonlarga yordam beruvchi ruhlar nomi – mifologemalar bilan atalgan. Masalan, toponimshunos Sh.Kamoliddin tadqiqotlariga ko‘ra, Farg‘ona

viloyatining Furqat tumaniga tegishli *Ardaxshon* oykonimi suv parisi va ilohi *Vaxsh* nomi bilan (ba’zi adabiyotlarda oykonimning shifobaxsh va muqaddas suv degan ma’nosi ham qayd etilgan), Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumaniga qarashli *Nanay* oykonimi esa zardushtiylik dinidagi unumdorlik xudosi *Nanayya* ismi bilan bog‘lanadi [4, B. 46]. S.Qoraev tadqiqotlariga ko‘ra esa, ushbu viloyatning Farg‘ona tumaniga qarashli *Kaptarxona* oykonimi ham kishilarning magik va mifologik qarashlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, olimning fikricha, qadimiy diniy e’tiqod bo‘yicha pari, ko‘pincha, kaptar ko‘rinishida tasavvur qilingan va dev-pari «ko‘rinadigan» joy *Kaptarxona* deb atalgan [5, B. 64]. Farg‘ona vodiysining ilk o‘rta asrlarda zardo‘shtiylik dini, urf-odatlari juda keng tarqalgan qadimiy hududlaridan biri So‘x (f-tumani suxtan – سوختن («yonmoq», «kuymoq») tumani nomining ham kelib chiqishi va etimologik talqinini, bizningcha, zardushtiylik ta’limotida muqaddas deb qaralgan `olov` tushunchasi bilan bog‘lash mumkin. Chunonchi, bir qancha tarixchi, arxeolog, etnograflarning ma’lumotlariga qaraganda, qazishmalar chog‘ida mazkur hududdan zardushtiylik diniga oid ko‘plab ashyoviy dalillarning – ular ichida eng mashhuri 1894-yilda Tul qishlog‘i yaqinidagi Mug‘tepa mavzesidan topilgan «ikki boshli chipor ilon» tumoridir – mug‘tepa va mug‘xonalarning topilishi ushbu fikrga kelishimizga asos bo‘ladi.

Islom dini qabul qilinganidan so‘ng muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni, shuningdek, ayrim qishloq, tepalik nomlarini payg‘ambar va avliyolar, mashhur shayx va imomlar, pirlar ismi bilan atash ularning nomlanishi uchun asosiy mezon qilib olingan. Jumladan, Buvayda va Rishton tumanlaridagi *Xizirota, Xizir buva* mozori, choryorlarning to‘rtinchisi Hazrati Ali nomi bilan bog‘lanadigan Farg‘ona, So‘x va Xo‘jaobod tumanlaridagi *Shohimardon, Hazrati Ali, Imomota,* tarixda birinchilardan bo‘lib islom dinini qabul qilgan Bilol ibn Ruboh Habashiy nomi bilan bog‘lanadigan Farg‘ona tumanidagi *Oqbilol*, shuningdek, Hazrat Alining mashhur Duldul oti bilan aloqador holda yuzaga kelgan So‘x tumanidagi *Dul ota,* Qo‘qon yaqinidagi *Kishnog‘ich to‘ra* kabi ziyoratgoh hamda qishloq nomlarining barchasi islom dini ta’sirida vujudga kelgan toponimlardir.

Tilshunoslikda «nisbiy etnotoponimlar» termini bilan yuritiladigan *eshon, xo‘ja, so‘fi, shayx, to‘ra* tarkibli toponimlar qatlami mavjudki [6, B. 83-85], ushbu nomlar ostida ham arablarga, to‘rt chohariyorlarga, umuman olganda, islom diniga aloqadorlik semalari yashirinib yotibdi: *Xo‘jamahalla* (Uychi tumani), *Eshonqishloq* (Shahrixon tumani), *Shayxon* (Pop tumani), *Yumaloqshayxmozor* (Kosonsoy tumani), *To‘rato‘pi* (Qo‘shtepa tumani), *Shayxislom* (Oltinko‘l tumani), *So‘fiqishloq* (Jalaquduq tumani) va boshqalar. Farg‘ona vodiysi toponimiyasi tizimida yana bir turkum diniy qatlamga oid nomlar majmuyi shakllangan bo‘lib, ularning lug‘aviy asoslarini *masjid // machit, mozor, namoz, vaqf, shahid, chilton, darvesh, qalandar, zohid, musulmon* singari islomiy atama va iboralar tashkil qiladi: *Qummozor* (Uchko‘prik tumani), *Balandmasjid* (Qo‘shtepa tumani), *Vaqf chorsu, Qalandarxona* (Qo‘qon shahri), *Vaxim, Namozgoh* (Shahrixon tumani), *Darveshobod* (O‘zbekiston tumani), *Zohidon* (Rishton tumani), *Musulmonko‘l* (Mingbuloq tumani), *Shohidon* (To‘raqo‘rg‘on tumani), *Chiltontepa* (Buvayda tumani) kabilar.

Shunday qilib, toponimlar o‘zbek tilining tarixiy va madaniy til birligi sifatida o‘zida xalqning diniy-mifologik qarashlari, urf-odatlari, qadriyatlari hamda turmush tarziga doir muhim ma’lumotlarni mujassamlashtiradi. Ularni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish til va madaniyat munosabati, qolaversa, xalqning madaniy qarashlari va an’analarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Марқаев К. Тотемистик тасаввурлар билан боғлиқ этнонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. – № 1.
2. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007.
3. Исомиддинов Ф., Юсуфов И. Ирим-сиримлар. – Фарғона, 2020.
4. Шамсиддин Камолиддин. Қадимий исмлардан ясалган жой номлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2003. – № 2.
5. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978.
6. Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2012.